

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloyevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnii rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullahayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози	161
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboievich , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li , PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
Алимова София Розумбаевна , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'naliшlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganova Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala.....	380
Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami	386
Xайдарова Малика Шакирджановна , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiiev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARI FAOLIYATIDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISHNING SWOT TAHLILI

Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada korxonalararo keskin raqobatlashuv sharoitida tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatiga marketing taddiqotlarini tatbiq qilishning ta'siri SWOT tahlili yordamida o'rganib chiqilgan. Bundan tashqari, xorij adabiyotlardan foydalangan holda xorij olimlarining tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatiga marketing taddiqotlarining ta'sirini o'rganishga qaratilgan ilmiy ishlarga nisbatan induktiv va deduktiv metodlar yordamida mualliflik yondashuvlari keltirilgan. Ushbu taddiqotdan asosiy maqsad, marketing taddiqotlarining korxonalar faoliyatiga ta'sir darajasi o'rganilgan ilmiy ishlardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston sharoitida tikuv-trikotaj korxonalari marketing taddiqotlaridan foydalanganda qanday ustunlik va kamchiliklarga ega bo'lishi mumkin ekanligini yoritib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: marketing taddiqotlari, SWOT tahlil, raqobat, investitsion risk, korxonaning kuchli jihatlari, imkoniyat, axborot, tovar xarajatlari

Abstract: In the article, the effect of applying marketing research on the activity of sewing and knitting enterprises in the conditions of intense inter-enterprise competition is studied using SWOT analysis. In addition, using foreign literature, the author's approaches of foreign scientists using inductive and deductive methods to study the impact of marketing research on the activities of sewing and knitting enterprises are presented. The main goal of this study is to clarify the advantages and disadvantages of the use of marketing research in the conditions of Uzbekistan, based on the scientific studies on the level of influence of marketing research on the activities of enterprises.

Key words: marketing research, SWOT analysis, competition, investment risk, company strengths, opportunity, information, commodity costs

Аннотация: В статье с помощью SWOT-анализа изучено влияние применения маркетинговых исследований на деятельность швейно-трикотажных предприятий в условиях острой межпредпринимательской конкуренции. Кроме того, с использованием зарубежной литературы представлены авторские подходы зарубежных ученых с использованием индуктивных и дедуктивных методов к изучению влияния маркетинговых исследований на деятельность швейно-трикотажных предприятий. Основной целью данного исследования является выяснение преимуществ и недостатков использования маркетинговых исследований в условиях Узбекистана на основе научных исследований уровня влияния маркетинговых исследований на деятельность предприятий.

Ключевые слова: маркетинговые исследования, SWOT-анализ, конкуренция, инвестиционный риск, сильные стороны компании, возможность, информация, товарные затраты

KIRISH

Bugungi kundagi axborot asrida aniq va to'g'ri ma'lumotlarga nisbatan talab kundan kunga ortib bormoqda. Iqtisodiy sikk qisqarib borayotgan bir davrda ma'lumotlar tezlik bilan va samarali qabul qilinmasa ular o'z ahamiyatini tezlik bilan yo'qotishga moyil bo'lib bormoqda. Bundan tashqari biznes sohalari orasida raqobatning kuchayishi natijasida faqat kapital, tabiiy resurs va ishchi kuchining o'zi kamlik qilmoqda, axborot resurslari ham o'z o'rmini mustahkamlab bormoqda.

Ushbu turdag'i o'zgarishlardan tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar ham chetda qolayotganlari yo'q, ularda ham iqtisodiy faoliyat kundan-kunga rivojlanib, murakkablashib bormoqda. Kerakli axborotni kerakli shaklda kerakli vaqtida qo'lga kiritish uchun esa marketing taddiqotlari talab etiladi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, marketing taddiqotlarini tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatiga joriy qilish – bozorda raqobat ustunligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillarda qishloq xo'jaligi sohasi iqtisodiyotda muhim o'rinni tutgan. Paxta ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatini esa bu borada alohida ta'kidlab o'tish joiz. Bu esa tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy xom ashyosi bo'lib, ushbu soha qishloq xo'jaligi bilan birgalikda rivojlantirish deyishimiz mumkin. Lekin ma'lum yillar davomida xom ashyo bazasi yetarli darajada bo'lishiga qaramasdan, o'zimiz eksport qilgan xom asosida tayyorlangan mahsulotlar katta hajmlarda import qilindi. Bu kabi holatlarni oldini olish maqsadida So'nggi yillarda ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, bunga sohani rivojlantirish va isloh qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining Qarorlariga asosan tikuv-trikotaj mahsuloti ishlab chiqaruvchi korxonalarini rivojlantirish va erkin faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida huquqiy asos va imkoniyatlar yaratildi. Bularning samarasini esa, sohada yildan yilga o'sib borayotgan ishlab chiqarish hajmlari va eksport hajmi ko'rsatkichlari orqali ko'rishimiz mumkin. Bugungi kun talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, sohada raqamlashtirish va marketing tadqiqotlarini joriy qilish kabi masalalar o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Yuqoridaqilar bilan bir qatorda tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar amaliyotida marketing tadqiqotlaridan foydalanish borasidagi quyidagi muammolar mavjud:

- bozorga yangi tovarlar taklif qilinishidan oldin, potensial mijozlar fikrini o'rganish va ular bilan samarali muloqot o'rnatish;
- tikuv-trikotaj mahsuloti ishlab chiqaruvchi korxonalar raqobatbardoshlilagini oshirish va ularning samarali faoliyat yuritishida raqamli texnologiyalardan foydalanish;
- mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishning har bir bosqichiga oid marketing tadqiqotlarini amalga oshirish;
- marketing tadqiqotlarini samarali tashkil qila oladigan mutaxasis va ekspertlarni tayyorlash;
- sohada marketing tadqiqotlariga oid xorijiy tajribalarini qo'llash.

ADABIYOTLAR TAHЛИI

Tadqiqot so'zining inglizcha shakliga qaraydigan bo'lsak research ekanligini ko'rish mumkin, re affksi fe'lning oldiga qo'shib qayta ma'nosini beradi. Demak research-(search-izlash,re-qayta) qayta izlanishlar olib borish ma'nosini beradi. Garvin va Andrewlar(2005) fikriga ko'ra har bir biznes muammosining ildizi oxir-oqibat axborot muammosiga borib taqaladi. Shundan kelib chiqqan holda tadqiqotlar orqali marketing strategiyasi hamda menejment jarayonini yanada samaraliroq amalga oshishini ta'minlash uchun aniq va qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishga harakat qilinadi(2002). Hech qanday tadqiqotlar o'tkazmasdan, mavjud axborot resurslaridan foydalanib kichik hajmdagi ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish qisqa muddatli jarayonda biror natija berishi mumkin, lekin uzoq muddatli jarayonlarda bunday xatti-harakatlar o'zini oqlamaydi.

Gibson va Lawrencelarning ta'kidlashicha (2000) marketing tadqiqoti bu — marketing marketing faoliyati muvaffaqiyatini ta'minlash uchun qimmatli ma'lumotlarni izlashga oid ilmiy metodni amaliyotga joriy etish jarayoni hisoblanadi. Ushbu turdagи tadqiqotlar o'z ichiga marketingga oid imkoniyatlar va muammolarni aniqlash, marketing faoliyatini ta'minlovchi g'oyalarni ishlab chiqish va baholash, jarayonni monitoring qilish va umumiylarini tushunish kabilarni oladi. Marketing tadqiqotlari odatiy tadqiqotlarga nisbatan kengroq qamrovga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

So'nggi yillarda marketing tadqiqotlariga oid turli shakldagi adabiyotlari bilan mashxurlikka erishgan olim Dr. Naresh K. Malhotra (2019) fikriga ko'ra marketing tadqiqotlari bu- biznesda qaror qabul qilishni rivojlantirishda yordam beruvchi mrkettingga oid muammolar va imkoniyatlarni aniqlash maqsadida ma'lumotlarni tizimli va obyektiv tarzda aniqlash, to'plash, tahlil qilish, taqsimlash va ulardan foydalanishni o'z ichiga oluvchi jarayon hisoblanadi.

Matveyeva O. P., Borovinskaya O. A. (2015)lar tomonidan "Zamonaviy tashkilotlar faoliyatida marketing tadqiqotlarining ahamiyati" mavzusida izlanishlar olib borilgan bo'lib, ularning fikriga ko'ra marketing tadqiqotlari birinchi navbatda biznes yo'nalishini tanlab olishda katta yordam beradi. Bundan tashqari quyidagi qarorlarni qabul qilishda muhim rol o'yaydi:

- yangi bozorga kirish uchun qaror qabul qilish
- bozorga yangi tovari taqdim qilish
- rebrending siyosatini amalga oshirish
- korxona tovari yoki xizmati uchun narx belgilash
- marketing siyosatini ishlab chiqish va xaridorlarga ta'sir ko'rsatish usullarini tahlil qilish




Ushbu turdag'i qarorlar deyarli barcha turdag'i korxonalar uchun umumiy hisoblanib, tikuva trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tashkilotlar ham shular jumlasidandir.

N. Sharopova (2023) tadbirkorlik faoliyatida raqamli marketing tadqiqotlarining zaruriyligi bo'yicha izlanish olib borgan. Bunda bibliografik uslubdan foydalanilgan bo'lib, shu yo'nalishdagi olimlar asarlari orqali fikrlar yoritilgan. Ushbu tadqiqot xulosasiga ko'ra, ijtimoiy tarmoq va boshqa kanallar iste'molchilarga nima yoqib nima yoqmasligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bunga qo'shimcha sifatida shuni aytish mumkinki, ayrim hollarda SMM xizmatini ko'rsatuvchi firmalar ham bu borada samara berishi mumkin.

SWOT tahlilining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning tarixi strategik rejalashtirish konsepsiysi bilan deyarli bir xil yoshga ega ekanligi oydinlashadi. Shundan kelib chiqib ham aytish mumkinki, ushbu tahlil usuli strategik rejalashtirishning eng muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu tushuncha adabiyotlarga 1960-yilda kirib kelgan. Bu esa biznes boshqaruvida strategiya konsepsiyasining qo'llanila boshlagan davri bilan parallel tushadi. SWOT tahlili kimlar tomonidan yaratilgani bo'yicha turli xil qarashlar mavjud bo'lib ayrim olimlar ushbu tahlil Garvard biznes maktabi tomonidan yaratilgan desa, boshqalar Standford universitetida yaratilganini aytishadi.

SWOT tahlili o'ziga xos vosita hisoblanib, strategik rejalashtirish va strategik boshqaruv kabi jarayonlarda korxonalar tomonidan qo'llaniladi. Tikuva trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatga ham o'ziga xos ravishda tashqi va ichki kuchlar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ta'sirlarni aniqlash va baholashda SWOT tahlili o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

20-asrning oxigi 10 yilligi boshida Minzerberg. H tomonidan SWOT tahlilining quyidagi ko'rinishi ishlab chiqilgan:



1-chizma: SWOT tahlili umumiy ko'rinishi

Manba: MINTZBERG, H. (1990). "The Design School: Reconsidering The Basic Premises of Strategic Management", Strategic Management Journal, 11, pp. 171–195.

Ushbu chizmaga ko'ra SWOT tahlilining kuchli va kuchsiz jihatlarga oid ko'rsatkichlari korxonaning o'z ichki omillariga bog'liq bo'lsa, imkoniyat va xavflar kabi ko'rsatkichlar bevosita tashqi ta'sirlarga bog'liq.

Ushbu tahlil usulining bir qancha foydalijihatlarini sanab o'tishimiz mumkin:

- SWOT tahlili umumiy jihatdan yechim berishi bilan xarakterlanadi. Bu tahlil muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun qo'shimcha tahlil usullari ham zarur. Shunday ekan SWOT tahlilni yo'l xaritasi sifatida qarash mumkin, bu orqali umumiyligidan xususiylikka qarab yo'nalish olish mumkin.
- Bundan tashqari ushbu tahlil usulida tashqi va ichki omillar o'zaro aloqadorlikda o'rganilib shunga oid qarorlar qabul qilish imkoniyati mavjud.
- SWOT tahlili menejerlar uchun turli muammolar yuzasidan munozaralar qilish va kelajakka oid qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.
- SWOT tahlili korxonaning darajasi yoki yo'nalishidan qat'iy nazar mos kelishi bilan boshqa tahlil usullaridan ajralib turadi.

O'z navbatida bir qancha kamchilik va cheklovlar ham mavjud:

- SWOT tahlili umumiylikka moyil va ko'proq tashqi muhit omillari o'zgarmas bo'lgan hollarda qo'l keladi, bugungi kunda o'zgarishlar tezligi ortganligi sababli bu uslubdan foydalanishda cheklovlar mavjud.
- Mintzberg(1990) fikriga ko'ra shunchaki bir joyda o'tirib korxona kuchli kuchsiz tomonlarini tadqiq qilish, talabalarning keys study qilishidan hech qanday farq qilmaydi
- SWOT tahlili miqdoriy ko'rsatkichlarga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lib, sifat omillari kam inobatga olingan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozishda bibliografik usuldan faol foydalanilgan bo'lib, bir qancha mahalliy va xorijiy olimlarning marketing tadqiqotlarini tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatiga joriy qilish masalalari bo'yicha izlanishlari ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari ushbu olimlarning qarashlariga nisbatan induktiv va deduktiv usullarni ishlatgan holda mualliflik yondashuvlari keltirib o'tilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi nazariy va amaliy ma'lumotlardan kelib chiqqan holda tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatiga marketing tadqiqotlarini joriy qilishni SWOT tahlilini amalga oshirdik va quydigilar aniqlandi:

Marketing tadqiqotlari orqali tikuv-trikotaj yo'nalishiga ixtisoslashgan korxonalar ushbu kuchli jihatlarga ega bo'lishadi:

- **Raqobatchi haqida ma'lumotlarga ega ekanligi**

Bugungi kundagi raqobatlashgan bozor sharoitida raqobatchilar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish biznes muvaffaqiyatining asoslaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ularning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash raqobatda yutib chiqishda muhim ahamiyatga ega.

- **Investitsion riskning minimalligi**

Biror yo'nalishda resurslarni sarflashdan oldin tadqiqotni amalga oshirish yo'qotishlarni oldini oladi va riskni minimallashtiradi.

- **Xaridor ehtiyoji haqida keraklicha ma'lumotga egaligi**

Bozorning eng muhim subekti xaridor bo'lganligi sababli uning xohishi haqida bilimlarga ega bo'lish unga qanday munosabatda bo'lish lozimligini belgilab beradi.

- **Biznesning salohiyatini baholay olishi**

Korxona tadqiqotlar orqali o'zining ichki salohiyatini baholash kabi kuchli jihatga ham ega bo'lib, bu orqali yanada rivojlanish uchun yangi metod va yo'nalishlarni tanlashda muvaffaqiyatga erisha oladi.

Tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning marketing tadqiqotlaridan foydalanishi ularda ushbu kamchiliklar bo'lishi mumkin ekanligini taqozo qiladi:

- **Yuqori darajadagi xarajatlar sarfi**

Marketing tadqiqotlarini o'tkazish odatda yuqori xarajatlarni talab qiladi, agar tadqiqot muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, resurslarning maqsadsiz sovrilishiga sabab bo'ladi.

- **Vaqtning ko'p yo'qotilishi**

Marketing tadqiqotlaridan korxona faoliyatida foydalanish ko'p vaqt talab qiladi. Agar strategiya to'g'ri tanlanmasa, sarflangan vaqt o'zini oglamasligi mumkin.

Tadqiqotlar natijasida quydagi imkoniyatlar yuzaga keladi:

- **Pozitsiyani mustahkamlash**

Bozorni va maqsadli auditoriyani yanada yaxshiroq tushunish, korxona uchun bozordagi pozitsiyani mustahkamlashda yordam beradi.

- **Bozordagi ulushni oshirish**

Investitsiya uchun yangi yo'nalishlarni aniqlanishi, potensial xaridorlar sonining ortishi o'z navbatida ulushning oshishiga olib keladi.

- **Xalqaro bozorga kirish**

Tadqiqotlar orqali xalqaro bozor haqida ham zaruriy ma'lumotlarga ega bo'lish va eksport salohiyatini oshish imkoniga ega bo'lish mumkin.

- **Xaridor bilan munosabatlarda aniq tizimning shakllanishi**



Tez-tez tadqiqotlarning o'tkazilib turilishi orqali tadqiqot optimal variantini aniqlash va xaridorlarga murojaat qilishdagi aniq tizimning shakllanishiga sabab bo'ladi.

■ Texnologik jihatdan rivojlanish

Hozirgi kunda tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda texnologiyalarning roli kundan kunga ortib borayotganligini inobatga olsak, marketing tadqiqotlari ushbu yo'nalishga ham yangiliklarni olib kirishga yo'l ochadi.

1-jadval: Tikuv-trikotaj korxonalarida marketing tadqiqotlari o'ztazishning SWOT tahlili

Kuchli tomonlar:	Kuchsiz tomonlar:
Raqobatga oid axborotga egalik	Yuqori darajadagi xarajatlar
Investitsion risk minimalligi	Vaqtning ko'p sarflanishi
Xaridor ehtiyoji haqida axborotga egalik	
Biznes salohiyatini baholay olish	
Imkoniyatlar:	Xavf-xatar:
Pozitsiyani mustahkamlash	Ma'lumotlarning tez eskirishi
Bozor ulushini oshirish	Ishonchsz manbalar soni ko'pligi
Xalqaro bozorga kirish	Malakali ekspertlar kamligining tadqiqot sifatiga ta'siri
Texnologik rivojlanish	
Manba: Muallif ishlanmasi	

Tadqiqotlar ortidan bugungi kunda quyidagi xavflar yuzaga kelishi mumkin:

■ Ma'lumotlarning tez eskirishi

Iqtisodiy siklning borgan sari qisqarib borishi, iqtisodiy jarayonlarda dinamiklikning oshishi ma'lumotlarning juda tez sur'atlarda eskirishga olib kelmoqda, eski ma'lumotlar qarorlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

■ Ma'lumotlar to'planadigan manbalarining hammasi ham ishonchli emasligi

Statistikadan ma'lum bo'lishicha internetda mavjud ma'lumotlarning ishonchlilaridan ko'ra yolg'on axborotlar ko'proqni tashkil qiladi. Bundan tashqari ayrim xollarda potensial xaridorlar ham noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etishlari mumkin.

■ Tahlil qiluvchi ekspertlar kamligining tahlil sifatiga ta'siri

Tadqiqotlarni amalga oshirishning oxirgi bosqichi to'plangan ma'lumotlarning tahlili hisoblanib, bu bosqichda tajribali ekspertlar xizmatiga ehtiyoj yuzaga keladi, bugungi kunda yurtimizda sifatli xizmat ko'rsatuvchi ekspertlar kamchilikni tashkil qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi tikuv trikotaj korxonalariga yaratilayotgan imkoniyatlar yordamida ularning faoliyati kengayib ishlab chiqarayotgan mahsulotlari turfa xilligi ham oshib bormoqda, lekin shunga qaramasdan tizimda hali ham bir qancha xato va kamchiliklar mavjud ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Tikuv-trikotaj korxonalarida asosiy e'tibor ko'proq xom ashyo masalasi, mahsulot sifati va reklama kabilarga qaratilib xaridorlar bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlash masalasiga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti.

O'zbekiston Respublikasi tikuv-trikotaj korxonalarida marketing tadqiqotlarini joriy etish orqali quyidagi muammolarga yechim topish imkonini yuzaga keltiradi:

- tikuv-trikotaj korxonalarida mahsulot sifati yanada oshishiga erishiladi va ularning raqobatbardoshlik darajasi ham ancha yuksaladi, korxona bozorda o'z pozitsiyasini yanada mustahkamlashi mumkin bo'ladi;
- mijozlar bilan bo'ladigan munosabatlar yanada mustahkamlanishiga erishiladi, ularning fikri asosida faoliyat yuritish imkoniy paydo bo'ladi, bu esa oxir oqibat yuqori darajadagi foyda olishni kafotlatlaydi;
- bozor konyukturasini chuqur tahlil qilish orqali korxona faoliyati davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarning oldini oladi va minimallashtiradi, bu esa faoliyatning muvaffaqiyatli ravishda amalga oshishini ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi ;
- raqobatchilar faoliyatini o'rganish va ular bo'yicha ma'lumot to'plash mumkin bo'ladi, ularning strategiyasidan xabardor bo'lgan holda qaror qabul qilish jarayoni yanada osonlashadi.

"SWOT" tahlili tadqiqotlari asosida tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatiga marketing tadqiqotlarini joriy etishning kuchli va kuchsiz jihatlari tahlil qilindi, tashqi omillar aniqlandi. Ushbu uslub asosida korxona strategiyasiga oid qarorlar qabul qilish jarayonida samarali ravishda foydalanish lozim.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Garvin, Andrew P., "Evolve Approach to Serve Complex Market," Marketing News (September 15, 2005), 22.
2. Thomas, Jerry W., "Skipping MR a Major Error," Marketing News (March 4, 2002), 50.
3. Gibson, Lawrence D., "Quo Vadis Marketing Research?" Marketing Research, 12 (Spring 2000), 36–41
4. Marketing Research: An Applied Orientation, 7th Edition, ISBN 978-0-13-473484-2, by Naresh K. Malhotra, published by Pearson Education 2019.
5. Sharopova, N. (2022). O'zbekiston tadbirkorlik subyektlari faoliyatida CRM tizimlaridan foydalanish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 10(3), 339–347.
6. Yallop, A. C., Baker, J. J., & Wardle, J. (2022). Market Research and Insight: Past, Present and Future. International Journal of Market Research, 64(2), 163–168. <https://doi.org/10.1177/14707853221080735>
7. Schwarzkopf S. (2016). In search of the consumer: The history of market research from 1890 to 1960. In Jones B., Tadajewski M. (Eds.), The Routledge Companion to Marketing History (pp. 61–83). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315882857-4>.
8. Levy S. (2006). History of qualitative research methods in marketing. In Belk R. (Ed.), Handbook of Qualitative Methods in Consumer Research (pp. 3–16). Edward Elgar.
9. Nunan D., Yallop A. C. (2019). Making the case for context: Creating value from market research history. International Journal of Market Research, 61(6), 585–587. <https://doi.org/10.1177/1470785319847648>.
10. Матвеева О. П., Боровинская О. А. РОЛЬ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ // Материалы VII Международной студенческой научной конференции "Студенческий научный форум" URL: <https://scienceforum.ru/2015/article/2015014650>
11. MINTZBERG, H. (1990). "The Design School: Reconsidering The Basic Premises of Strategic Management", Strategic Management Journal, 11, pp. 171–195.
12. CHERMACK, T. J. & KASSHANNA, B. K. (2007). "The use and misuse of SWOT Analysis and implications for HRD professionals", Human Resource Development, 10 (4), pp. 383–399.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

